XALQ DEPUTATLARI UCHQO`RG`ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 14 - aprel VI-56-36-6-87-K/23 Uchqo‘rg‘on tuman hokimligi

Uchqo‘rg‘on tumanidagi geografik ob’ektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 20 yanvardagi 34-son qarori, O’zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022 yil 20 oktyabrdagi 08-09147-sonli “Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni” ijrosini ta’minlash maqsadida tuman komissiyasi bergan hulosasiga asosan tumandagi 59 ta qabriston, 1 ta istirohat bog‘i, 1 ta ziyoratgoh, 1 ta hotira hiyobonini tasdiqlash to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Uchqo‘rg‘on tuman Kengashi

QAROR QILADI :

1. Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022 yil 30 sentyabrdagi 09/22-sonli hamda 2023 yil 12 yanvardagi 08-00292-sonli hulosalariga muvofiq tumandagi 59 ta qabristonlar, 1 ta istirohat bog‘i, 1 ta ziyoratgoh, 1 ta hotira hiyobonini taklifi ma’qullansin.

2. Tumandagi 59 ta qabristonlar, 1 ta istirohat bog‘i, 1 ta ziyoratgoh, 1 ta hotira hiyoboni nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (J.Kamolov), tuman kadastr agentligi, tuman

qurilish bo‘limi boshlig‘i (M.Tursunov) boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda nomlari ilovada ko‘rsatilgan geografik ob’ektlarni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish xujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish, oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Toshpo‘latova) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **J.N.Rizzayev**

Xalq deputatlari Uchqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2023 yil 14 apreldagi
VI-56-36-6-87-K/23-son qaroriga
1-ilova

T/r	**Obyektning nomi**	**MFY nomi**
1	Birodarlik	Chek MFY
2	Birodarlik	Katta mo‘g‘ol MFY
3	Mangulik	Katta mo‘g‘ol MFY
4	Mehnatobod	Tinchlik MFY
5	Kuyiktepa	Qurama MFY
6	Qorovulxona	Tinchlik MFY
7	Qosimqori	Uchyog‘och MFY
8	Birodarlik	Qo‘rg‘oncha MFY
9	Xojiobod	Guliston MFY
10	Ikromobod	Guliston MFY
11	Uchko‘prik	Uchko‘prik MFY
12	Birodarlik	Birlik MFY
13	Toxirobod	Namuna MFY
14	Birodarlik	Paxtachi MFY
15	Paxtachi	Paxtachi MFY
16	Xojiona	Uchko‘prik MFY
17	Rus qabristoni	Uchko‘prik MFY
18	Birodarlik	Uzun ko`cha MFY
19	Mangulik	Uzun ko`cha MFY
20	Xotira	Uzun ko`cha MFY
21	Obod	Farovon MFY
22	Beshqo‘rg‘on	Novoiy MFY
23	Paxtachi	Paxtachi MFY
24	Mo‘g‘ul	Fayziobod MFY
25	Gadoytopmas	Navoiy MFY
26	Pichanto‘pi	Navoiy MFY
27	Yorqinboychek	Yorqinboy chek MFY
28	Sharxonchek	Sharxonchek MFY
29	Qo‘g‘ay-O‘lmas-1	Qo‘g‘ay-O‘lmas MFY
30	Qo‘g‘ay-O‘lmas-2	Qo‘g‘ay-O‘lmas MFY
31	Baxriobod	Baxribod MFY
32	Birodarlik	Yangiobod MFY
33	Oqtepa	Obod MFY
34	Qo‘qon	Ozod MFY
35	Gultepa	Ozod MFY
36	Toshmozor	Yangiobod MFY
37	Kattachek	Katta chek MFY
38	O‘ljato‘pi	O`lja to`pi MFY

39	Toshkechuv	Baxt MFY
40	Yopisxon	Yopisxon MFY
41	Qozoqovul	Qozoq ovul MFY
42	Qozoqovul-2	Qozoqovul MFY
43	Qorovul-ota	Xalfa to`pi MFY
44	Xalfato‘pi	Xalfa to`pi MFY
45	Qurama	Baxt MFY
46	Xojimuxammad Eshon	Eshon tupi MFY
47	Yalang‘och-ota	Elatan MFY
48	Fayziobod	Elatan MFY
49	Etti qashqa	Atlas MFY
50	Dexqonboy so‘fi	Guliston MFY
51	Yo‘lbars qamar	Dexqonobod MFY
52	Xo‘jasaid	Yangiyer MFY
53	Oqtovliq	Oqtovliq MFY
54	Tirikmozor	Mustaqillik MFY
55	Bog‘ko‘cha	Bog‘ko‘cha MFY
56	Birodarlik	Mustaqillik MFY
57	Namuna	Namuna MFY
58	Ko‘chaboshi	Ko‘chaboshi MFY
59	Tegirmon	Tegirmon MFY
60	Tirikmozor	Ziyoratgoh (Mustaqillik MFY)
61	Uchqo‘rg‘on	Istirohat bog‘i (Do`stlik MFY)
62	Xotira	Hiyobon (Do`stlik MFY)